



Kimyo sanoati sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Kimyo sanoati sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Kimyo sanoati sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Kimyo sanoati sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-007



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, kimyo sanoati tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), ma'suliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi kimyo sanoati tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Kimyo sanoati sohasi yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi kimyo sanoati tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun kimyo sanoati tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mineral xomashyo – qazib olingan va birlamchi ishlov berishdan o'tkazilgan foydali qazilmalar;

Noorganik moddalar (noorganik moddalar) – organik bo'lmagan oddiy moddalar va kimyoviy birikmalar, ya'ni ularning tarkibida uglerod bo'lmagan moddalar. Shuningdek, ba'zi uglerodli birikmalar (karbidlar, siyanidlar, karbonatlar, uglerod oksidlari, CO va CO₂ va an'anaviy ravishda noorganik deb tasniflanadigan ba'zi boshqa moddalar). Noorganik moddalar organik moddalargagina xos bo'lgan uglerodli tuzilishiga ega emas.

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

organik modda – organik birikma, ya'ni uglerodning boshqa elementlar bilan birikishidan hosil bo'lgan birikma; 2) geologiyada — tabiiy organik birikmalarning murakkab aralashmasi; tuproq, dengiz va ko'l cho'kindilari, cho'kindi tog' jinslari, shuningdek, yer usti va yer osti suvlari tarkibida bir oz miqdorda bo'ladi. Organik moddaning bosh manbai, asosan, o'simliklardir. Organik moddaning gumus, sapropel va liptobolit xillari bor. Cho'kindi jinslarda o'rta hisobda 15–20 kg/m³ chamasida bo'ladi. Ko'mir va yonuvchi slaneslarning asosiy massasini tashkil etadi; neft va yonuvchi gazlarning manbai deb hisoblanadi.

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning oʻrtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda asos boʻlgan normativ-huquqiy hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqida 2014-yil 6-maydagi OʻRQ-370-son qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy taʼlimda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro taʼlim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-158-son farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-436-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-345-son qarori;

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "Oʻzbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 369-son qarori;

Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi” (IFUT-2.1), OʻzMSt 64o:2025;

Oʻzbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 18-iyuldagi Mashgʻulotlarning milliy klassifikatori (MMK 2025), OʻzMSt 641:2025;

“Oʻzkimyosanoat” AJning 2021-yil 21-oktabrdagi “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini joriy etishda xodimlar bilan ishlash yoʻnalishini tartibga solish va ichki meʼyoriy-huquqiy hujjatlar toʻplamini shakllantirish boʻyicha” 129-son ichki buyrugʻi;

“Oʻzkimyosanoat” AJning 2023-yil 13-fevraldagi Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi toʻgʻrisida BN-07-son nizomi.

Asosiy qisqartmalar:

KOICA – Korea International Cooperation Agency (KOICA) (Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA);

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

MMK– Mashgʻulotlar milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

MCHJ – Masʼuliyati cheklangan jamiyat;

PQ – Prezident qarori;

OʻRQ – Oʻzbekiston Respublikasini Qonuni;

AJ – Aksiyadorlik jamiyati.

1. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Kimyo va biotexnologiya sanoati sohalari – bu xom ashyoni qayta ishlash, kimyoviy moddalar, reaktivlar, mineral o'g'itlar, polimerlar, hamda boshqa kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan yirik tarmoq bo'lib, u texnologik jarayonlarning murakkabligi va yuqori xavfsizlik talablariga ega.

Kimyo sanoati sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Kimyo va biotexnologiya sanoati sohasidagi TMR quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat.

N – seksiya Professional, ilmiy va texnik faoliyat.

O'zbekiston Respublikasida Kimyo va biotexnologiya sanoati sohalaridagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat	20 Kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish	20.1 Asosiy kimyoviy moddalar, o'g'itlar va azotli birikmalar, birlamchi formalarda plastmassa va sintetik kauchuk ishlab chiqarish	20.11 Sanoat gazlari ishlab chiqarish	20.11.0 Sanoat gazlari ishlab chiqarish
				20.12 Bo'yoq moddalar va pigmentlar ishlab chiqarish	20.12.0 Bo'yoq moddalar va pigmentlar ishlab chiqarish
				20.13 Boshqa asosiy noorganik kimyoviy moddalar ishlab chiqarish	20.13.0 Boshqa asosiy noorganik kimyoviy moddalar ishlab chiqarish
				20.14 Boshqa asosiy organik kimyoviy moddalar ishlab chiqarish	20.14.0 Boshqa asosiy organik kimyoviy moddalar ishlab chiqarish
				20.15 O'g'itlar va azotli birikmalar ishlab chiqarish	20.15.1 O'g'itlar ishlab chiqarish
					20.15.2 Azotli birikmalar ishlab chiqarish
				20.16 Birlamchi formalarda plastmassa ishlab chiqarish	20.16.0 Birlamchi formalarda plastmassa ishlab chiqarish
				20.17	20.17.0

				Birlamchi formalarda sintetik kauchuk ishlab chiqarish	Birlamchi formalarda sintetik kauchuk ishlab chiqarish
			20.2 Pestitsidlar va boshqa agrokimyoviy moddalar ishlab chiqarish	20.20 Pestitsidlar va boshqa agrokimyoviy moddalar ishlab chiqarish	20.20.0 Pestitsidlar va boshqa agrokimyoviy moddalar ishlab chiqarish
			20.3 Bo'yoqlar, laklar va shu kabi bo'yovchi moddalar, bosmaxona bo'yoqlari va mastikalar ishlab chiqarish	20.30 Bo'yoqlar, laklar va shu kabi bo'yovchi moddalar, bosmaxona bo'yoqlari va mastikalar ishlab chiqarish	20.30.0 Bo'yoqlar, laklar va shu kabi bo'yovchi moddalar, bosmaxona bo'yoqlari va mastikalar ishlab chiqarish
			20.4 Sovun va yuvish vositalari, tozalash va sayqallash preparatlari, parfyumeriya va pardozi vositalari ishlab chiqarish	20.41 Sovun va yuvish vositalari, tozalash va sayqallash preparatlari ishlab chiqarish	20.41.0 Sovun va yuvish vositalari, tozalash va sayqallash preparatlari ishlab chiqarish
				20.42 Parfyumeriya va pardozi vositalari ishlab chiqarish	20.42.0 Parfyumeriya va pardozi vositalari ishlab chiqarish
			20.5 Boshqa kimyoviy moddalar ishlab chiqarish	20.51 Portlovchi moddalar ishlab chiqarish	20.51.0 Portlovchi moddalar ishlab chiqarish
				20.52 Yelim ishlab chiqarish	20.52.0 Yelim ishlab chiqarish
				20.53 Efir moylari ishlab chiqarish	20.53.0 Efir moylari ishlab chiqarish
				20.59 Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyoviy moddalar ishlab chiqarish	20.59.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyoviy moddalar ishlab chiqarish

			20.6 Sun'iy tolalar ishlab chiqarish	20.60 Sun'iy tolalar ishlab chiqarish	20.60.0 Sun'iy tolalar ishlab chiqarish
2	N – seksiya Professional, ilmiy va texnik faoliyat	71 Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat	71.2 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20.0 Texnik sinovlar va tahlillar

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2.	12190	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha boshqaruvchilar, b.g.k.
3.	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
4.	13212	Energiya ta'minoti sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
5.	13219	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan ishlab chiqarish sanoati, energiya ta'minoti, suv ta'minoti, chiqindilarni yig'ish va tozalash sohalarida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari, b.g.k.
6.	13220	Konchilik, qazib olish sanoatida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari boshliqlari
7.	13460	Moliyaviy faoliyat va sug'urta sohasidagi xizmatlar va bo'limlar rahbarlari
8.	21130	Kimyogarlar
9.	21411	Ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhandislar
10.	21451	Muhandis-kimyogarlar (umumiy)
11.	31111	Kimyo sohasidagi texniklar
12.	31322	Suv tozalash inshootlari operatorlari
13.	31323	Oqava suvlar va kanalizatsiya tizimlari operatorlari
14.	31330	Kimyoviy xomashyoni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha nazoratchilar
15.	71190	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan qurilish va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k.
16.	72149	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konstruksion material tayyorlovchilar va montaj qiluvchilar, b.g.k.
17.	81121	Rudaga ishlov berish va boyitish operatorlar
18.	81122	Tog' jinslariga ishlov berish va boyitish operatorlari
19.	81219	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan metall eritish uskunalariga xizmat ko'rsatish va metallga termik ishlov berish uskunalariga ishchilari (operatorlari), b.g.k
20.	81229	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan silliqlash, metallash va metallarga himoya qobig'i berish qurilmalari operatorlari, b.g.k.

21.	81311	Kimyoviy moddalarni maydalash, ezish, silliqdash, eritish va aralashtirish uskunalari operatorlari
22.	81312	Termokimyoviy ishlov berish operatorlari
23.	81313	Kimyoviy filtratsiya va ajratish operatorlari
24.	81314	Kimyoviy distillyatsiya apparati va reaktor operatorlari
25.	81315	Sintetik tola ishlab chiqarish operatorlari
26.	81316	Kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish operatorlari
27.	81317	Lak-bo'yoq mahsulotlari ishlab chiqarish operatorlari
28.	81319	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kimyoviy xomashyoni, neft va neft mahsulotlarini, boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlarni qayta ishlash zavodlariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchilar va turdosh kasb ishchilari, b.g.k.
29.	81541	Matolarni oqartirish operatorlari
30.	81549	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan oqartirish, bo'yash, xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni tozalash uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
31.	81607	Oziq-ovqatni termik va mexanik ishlash operatorlari
32.	81609	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash uskunalari va shu kabi uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
33.	81819	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan shisha va keramika ishlab chiqarish uskunalarga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
34.	81822	Qozonxona operatorlari
35.	81829	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan bug' dvigatellari va qozonxonalarning operatorlari, b.g.k.

3.Tarmoq tahlili

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining eng inqilobiy tarmog'i bo'lib, butun iqtisodiy taraqqiyotga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Kimyo sanoatining xom ashyosi bu bitmas tuganmas moddalar: tuproq, suv, havo, tabiiy qazilmalar (neft, gaz, toshko'mir, slanes, rudalar) hatto atrof muhitni ifloslantiruvchi chiqindilar, tutunlar, zaharli gazlar va boshqalardir.

Kimyo sanoati mana shu xomashyolardan xalq xo'jaligining qariyb barcha tarmoqlari uchun bir necha o'n minglab qimmatbaho mahsulotlar: plastmassalar, kauchuk va rezina, kimyoviy tolalar, charm, o'g'itlar, bo'yoqlar, laklar, chinni bo'yoqlar, shisha, sement, spirtlar, kislotalar, erituvchilar, motor yoqilg'ilari, surkov moylari, portlovchi moddalar, koks, rangli va qora metallar va ularning qotishmalari, dori darmonlar hatto ayrim oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda "O'zkimyosanoat" AJ tarmog'ida jami 21 ta korxona mavjud bo'lib, ulardan 6 tasi asosiy, yirik va yetakchi korxonalar hisoblanadi. "O'zkimyosanoat" AJ tarmog'ida asosiy, yirik korxonalar quyidagilar:

“Navoiyazot” AJ.

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari	Ammiakli selitra, ammoniy sulfati, nitron tolasi, uksus kislotasi, sianli natriy, azot kislotasi, uglerod oksidi gazi, metanol, texnik solyan kislotasi, poliakrilamid, gaz holatli argon, formalin, suyuq xlor, uniflok, Karbamid-formaldegid smolasi, atsetilen, fosforli ammiakli selitra, “A” markali metanol, dimetil efir va boshqalar
Ishlab chiqarishda zarur bo'lgan asosiy xom-ashyo	Tabiiy gaz, kationli rang beruvchi moddalar, katalizatorlar, sorbital, sorbitan, gidroksinon, monoetanolamin, kalsiylashtirilgan soda, texnik tuz, porofor, izopropil spirti, diizopropil efiri, itakon kislotasi, temir kuporos, oltin gugurt, termolan, triamon
Asosiy mahalliy iste'molchilar	Qishloq xo'jaligi, NTMK, “O'zkimyosanoat” AJ korxonalari, OKMK, “NavoiyIES” OAJ, “Chkalov nomidagi TAICHB” AJ, TTZ, “YUPK” OAJ
Asosiy chet ellik iste'molchilar	Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Xitoy, Pokiston, Turkiya, Ukraina
Ishchilar soni	8500
Korxonaning 2023 — 2024 yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlari va 2025 yilda kutilayotgan natijalari haqida ma'lumot	2023-yilda korxona tomonidan tovar mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 5 220,3 mlrd. so'mni, 2024-yilda 6 125,3 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 110,7 foiz)ni tashkil etdi, 2025-yilda esa korxona tomonidan 6 918,0 mlrd. so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati – 106,0 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlari reja ko'rsatkichlarini bajarish orqali, jamiyatning sof foydasi 2023-yilda 28,4 mlrd. so'mni, 2024-yilda 81,1 mlrd. so'mni tashkil etdi hamda 2025-yilda jamiyatning sof foydasi 120,1 mlrd. so'mni tashkil etidi.

“Maxam-Chirchiq” AJ:

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari	Ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfati, ammiak, ammiakli suv, azot kislotasi, katalizatorlar, ammoniy karbonati, uglerod oksidi gazi, karbomid ammiak qorishmasi, zichligi kam bo'lgan ammiyakli selitra, ammiak ishlab chiqarish uchun katalizatorlar, fosfomochevina, magniy sulfati va boshqalar
Ishlab chiqarishda zarur bo'lgan asosiy xom-ashyo	Tabiiy gaz, kaustik soda, oltin gugurt, texnik solyan kislotasi, formalin, metanol, monoetanolamin
Asosiy mahalliy iste'molchilar	Qishloq xo'jaligi, kimyo va sanoatning boshqa tarmoqlar korxonalari
Asosiy chet ellik iste'molchilar	Qozog'iston, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Xitoy, Turkiya
Ishchilar soni	5800
Korxonaning 2023 - 2024 yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlari va 2025 yilda kutilayotgan natijalari haqida ma'lumot	2023-yilda korxona tomonidan tovar mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 2 457.4 mlrd. so'mni, 2024-yilda 2 539.1 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 104,7 foiz)ni tashkil etdi, 2025-yilda esa korxona tomonidan 2 798,4 mlrd. so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati – 108,4 foizni tashkil etidi. Ishlab chiqarish quvvatlari reja ko'rsatkichlarini bajarish orqali, jamiyatning sof foydasi 2023-yilda 221,3 mlrd. so'mni, 2024-yilda -17.7 mlrd. so'mni tashkil etdi hamda 2025-yilda jamiyatning sof foydasi 17.5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

“Ammofos-Maxam” AJ

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari	Ammofos, ammoniy sulfat fosfat, suprefos, ammoniy sulfati, DVP, elektrolit, oltin gugurt kislotasi, ozuqa fosfati (chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sanoati uchun), trinatriy fosfat va boshqalar
Ishlab chiqarishda zarur bo'lgan asosiy xom-ashyo	Fosfor uni, oltin gugurt, ammiak
Asosiy mahalliy iste'molchilar	Qishloq xo'jaligi, kimyo va sanoatning boshqa tarmoq korxonalari
Asosiy chet ellik iste'molchilar	Tojikiston, Afg'oniston, Xitoy
Ishchilar soni	2500
Korxonaning 2023 — 2024 yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlari va 2025 yilda kutilayotgan natijalari haqida ma'lumot	2023-yilda korxona tomonidan tovar mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 1 297,7 mlrd. so'mni, 2024-yilda 1 301,3 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 98,5 foiz)ni tashkil etdi, 2025-yilda esa korxona tomonidan 1 465,4 mlrd. so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati – 112,0 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlari reja ko'rsatkichlarini bajarish orqali, jamiyatning sof foydasi 2023-yilda 129,5 mlrd. so'mni, 2024-yilda 22,0 mlrd. so'mni tashkil etdi hamda 2025-yilda jamiyatning sof foydasi 73,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari	Xlorli kaliy GOST 4568-95, texnik tuz
Ishlab chiqarishda zarur bo'lgan asosiy xom-ashyo	Silvinit rudasi
Asosiy mahalliy iste'molchilar	Dehqon va fermer xo'jaliklari
Asosiy chet ellik iste'molchilar	Shri Lanka, BAA, Qozog'iston, Gruziya, Vietnam, Malayziya, Xitoy
Ishchilar soni	1176
Korxonaning 2023 — 2024 yilgi iqtisodiy ko'rsatkichlari va 2025 yilda kutilayotgan natijalari haqida ma'lumot	2023-yilda korxona tomonidan tovar mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 755,9 mlrd. so'mni, 2024-yilda 766,7 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 101,4 foiz)ni tashkil etdi, 2025-yilda esa korxona tomonidan 774,9 mlrd. so'mlik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, 2024-yilga nisbatan o'sish sur'ati – 101,0 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish quvvatlari reja ko'rsatkichlarini bajarish orqali, jamiyatning sof foydasi 2023-yilda 17,7 mlrd. so'mni, 2024-yilda 44,8 mlrd. so'mni tashkil etdi hamda 2025-yilda jamiyatning sof foydasi 60,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

“Qo’ng’irot soda zavodi” MChJ QK

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko’rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari	Kalsiylangan soda, texnik tuzi
Ishlab chiqarishda zarur bo’lgan asosiy xom-ashyo	Texnik maqsadlar uchun ko’l tuzi, ohaktosh
Asosiy mahalliy iste’molchilar	Oyna ishlab chiqarish va kimyo sanoati korxonalari, qurilish korxonalari
Asosiy chet ellik iste’molchilar	Qirg’iziston, Turkiya
Ishchilar soni	1362
Korxonaning 2023 — 2024 yilgi iqtisodiy ko’rsatkichlari va 2025 yilda kutilayotgan natijalari haqida ma’lumot	2023 yilda jami 819,2 mlrd so’mlik tovar mahsulotlari, jumladan 212,7 ming tonna kalsinatsiyalagan soda ishlab chiqarildi. Reja bajarilishi 107,8%. O’sish sur’ati 129,1%.ни ташкил килди. Маҳсулот сотилиши 749,5 mlrd. sumни ташкил этиб, reja 108,2% ga bajarildi. Shundan, eksportga 13,2 mln. dollarlik mahsulot sotildi. 2024 yilda jami 764,3 mlrd so’mlik tovar mahsulotlari, jumladan 222,1 ming tonna kalsinatsiyalashgan soda ishlab chiqarildi. Reja bajarilishi 108,4%. O’sish sur’ati 14,5% ташкил килди. Маҳсулот сотилиши 217,1 ming tonna kalsinatsiyalashgan soda va 751,1 mlrd so’mlik mahsulotlar sotildi. Shundan, 18,3 mln. dollarlik (72,5 ming tonna) kalsinatsiyalashgan soda mahsulot eksport qilindi. 2025 yilda jami 735,8 mlrd so’mlik tovar mahsulotlari, jumladan 206,7 ming tonna kalsinatsiyalashgan soda ishlab chiqarilishi kutilmoqda. 206,7 ming tonna kalsinatsiyalashgan soda va 768,1 mlrd so’mlik mahsulotlar sotildi. Shundan, 22,6 mln. dollarlik (89,8 ming tonna) kalsinatsiyalashgan soda mahsulot eksport qilinishi ko’zda tutilgan.

Tarmoqqa tegishli kasblar bo’yicha kadrlar tayyorlash borasida bugungi kunda kimyo sanoati tarmog’ida 28 mingdan ortiq xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 19,1 foizini oliy ma’lumotli xodimlar, 46,4 foizini o’rta va o’rta maxsus ma’lumotli xodimlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda kimyo sanoati tarmog’i uchun 24 ta mahalliy oliy ta’lim muassasalari hamda 2 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari, shuningdek 15 ta professional ta’lim muassasalari kadrlar tayyorlab bermoqda. Kimyo sanoati tarmog’ida yiliga o’rtacha 4.4 mingdan ziyod xodimning malakasi oshiriladi.

Joriy yilda mahalliy oliy ta’lim muassasalarida jami 605 nafar mutaxassislar tayyorlanmoqda. Jumladan:

D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent shahridagi filialida - 597 nafar, boshqa OTMlarda - 8 nafar, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida jami 14 nafar, shu jumladan: “Koreya-O’zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti - Kimyo texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish” investitsiya loyihasi doirasida - 18 nafar (7 nafar doktorant va 11 nafar magistrant).

2025-yilning yanvar oyida 948 nafar ishchi-xodimlarning malakasi oshirilgan. Ulardan respublika o'quv markazlarida 319 nafar va korxonaning o'zida 629 nafar, jami xodimlarning malakasini oshirishga 524 mln. so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

"O'zkimyosanoat" AJ tomonidan Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan birgalikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda kimyo texnologiyalari markazining salohiyatini oshirish" loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 28-dekabrda PQ-67-son qarori ijrosi doirasida "Koreya-O'zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti – Kimyo texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish" investitsiya loyihasi doirasida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda, ushbu ilmiy markazni malakali kadrlar bilan ta'minlash orqali uning salohiyatini oshirish belgilangan bo'lib, 2022-yil 24-iyunda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan "O'zkimyosanoat" AJ o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi xalqaro shartnoma – muhokama bayonnomasi imzolandi.

Ma'lumot uchun: Loyiha doirasida ilmiy markaz salohiyatini oshirish bo'yicha fan doktorlari (PhD), magistrantlar hamda laboratoriya xodimlarini tayyorlash, shuningdek, ilmiy markaz faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha birgalikda Bosh reja ishlab chiqish, seminarlar tashkil etish hamda xodimlar malakasini oshirish bo'yicha Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan 7 mln. dollar miqdoridagi grant mablag'lari ajratilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-maydagi 06/1-3254-son topshirig'iga muvofiq ilmiy markazni malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2023-2027-yillar oralig'ida 10 nafar doktorantura (PhD) va 12 nafar magistratura yo'nalishlariga Koreya Respublikasiga kimyo texnologiyasi yo'nalishi bo'yicha o'qishga yuborish 2022-yilning iyun oyidan boshlab o'tkazib kelinayotgan tanlovlar doirasida bugungi kunga qadar 11 nafar magistratura va 7 nafar doktoranturaga munosib nomzodlar saralab olinib, bahorgi va kuzgi o'quv yillari uchun mos ravishda 2023-yil mart va avgust, 2024-yil mart va sentyabr oylarida hamda 2025-yilning fevral oyida Koreya Respublikasiga o'qishga yuborildi.

Bugungi kunda 2025-yilning kuzgi o'quv yili uchun tanlovlar e'lon qilinmoqda.

Amaliyotlar – Joriy yilda tizim korxonalarida jami 322 nafar (oliy ta'lim muassasalarining 277 nafar, professional ta'lim muassasalarining esa 45 nafar) talabalariga amaliyotlar tashkil etildi. Amaliyot davrida ularga korxonalarning 43 nafar malakali mutaxassislari ustoz sifatida biriktirildi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining 2 nafar professor-o'qituvchilari uchun tarmoq korxonalarida stajirovkalar tashkil etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-345-sonli qarorga muvofiq "O'zkimyosanoat" AJda Kimyo sanoati sohasida kasbiy

malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi (keyingi o'rinlarda – Tarmoq kengashi) tashkil etilgan.

Tarmoq kengashi tarkibiga kimyo sanoati sohasiga mansub bo'lgan yirik ish beruvchi korxonalarining birinchi rahbarlari kiritilgan. Tarmoq kengashiga "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Tarmoq kengashining ishchi organi "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining bosh mutaxassislari. Shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish maqsadida Tarmoq kengashi tomonidan doimiy faoliyat yurituvchi ekspert ishchi guruhlar tuzilgan.

Tarmoq kengashi to'g'risidagi nizom, uning tarkibi va reglamenti Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan holda Tarmoq kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan.

Tarmoq kengashi tomonidan kasbiy standartlarni ishlab chiqish borasida 2020-2024-yillarda quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

Kimyo sanoati sohasiga mansub bo'lgan jami 197 ta kasb standartlari ishlab chiqilgan bo'lib ularning barchasi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining maxsus profstandart.uz platformasi orqali muhokamadan o'tkazilgan hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan;

Kimyo sanoati sohasi bo'yicha tarmoq malaka ramkalari ishlab chiqilgan hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan;

Xizmatchilar lavozimlari va ishchi kasblarining tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomasi loyihasi tayyorlangan;

Kimyo sanoatiga mansub bo'lgan yirik korxonalar huzurida jami 6 ta Malakani baholash markazlari tashkil etilgan bo'lib, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining asosiy ishlab chiqarish ishchi kasblariga oid tasdiqlangan kasb standartlari asosida baholash vositalari Mehnat bozori tadqiqotlari instituti va Tarmoq kengashi tomonidan ekspertizadan o'tkazilib, belgilangan tartibda tasdiqlangan va shu asosda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan tegishli litsenziyalar qo'lga kiritilgan.

Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh va istiqbolli hisoblangan, yuqori talabga ega bo'lgan kasblar ro'yxati:

1.	Noorganik moddalar kimyogar-texnolog (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)
2.	Sex texnolog (Kimyo sanoatida)
3.	Muhandis-texnolog (Kimyo sanoatida)
4.	Kimyoviy-texnologik tadqiqot laboranti
5.	Kimyogar
6.	Kimyogar texnolog
7.	Muhandis kimyogar
8.	Laborant
9.	Ishlab chiqarish laboranti
10.	Xomashyo bo'yicha texnik-kimyogar
11.	Vakuum qurilmasi mashinisti
12.	Markaziy pult boshqarmasi operatori

13.	Bug'lash apparatchisi
14.	Adipin kislotasi (bertoliy tuzi, gidrosulfit natriy, ditsiandiamid, kaliy selitrasi, kontakt massa, kriolit, litopon, mishyaksimion tuzlar, natriy nitrati va niritini, regenerativ moddalar, rux kuporosi, sulfat moylari va zaxarli dorilar, sianli metallar) ishlab chiqarish apparatchisi
15.	Ammiak selitrasi (ikki oksidli xlor, kontaktli oltingugurt kislotasi, suyuq o'g'itlar) ishlab chiqarish apparatchisi
16.	Vakuum-quritish qurilmasi apparatchisi
17.	Kaliy peroksidi ishlab chiqarish apparatchisi
18.	Mochevina ishlab chiqarish apparatchisi
19.	Nitrofokslar ishlab chiqarish apparatchisi
20.	Oksixlorlash apparatchisi
21.	Suyuq mahsulot olishga mo'ljallangan bug'lash apparatlari apparatchisi
22.	Xom aralashmalar tayyorlash apparatchisi
23.	Fizik-mexanik sinovlar laboranti
24.	Boshqaruv pulti operatori
25.	Operator (kimyo sanoatida)
26.	Flotator (flotatorchi)
27.	Apparatchi (kimyo sanoatida)
28.	Aralashmalar va eritmalar tayyorlash apparatchisi
29.	Absorbsiya (atsilirlash, gidroliz, kondensatsiya, sintezlash, haydash, elektrodializ, elektroliz) apparatchisi
30.	AG-tuzi (azot bo'yoqlari, korund, natriy metallini, silikagellar, silikat yelim, termik fosfor kislotasi, ferment va plazma o'rnini bosadigan preparatlar, fosforli birikmalar, shishaplastik tolalardan materiallarni) ishlab chiqarish apparatchisi
31.	Adiponitril (bariy tuzlari, ditsiklopentadiyen, qizil fosfor, mezdra yelimini, reagentlar, sulfat ammoniy, ftalotsianinli bo'yoqlar) ishlab chiqarish apparatchisi
32.	Aktivlashtirish (aminirlash, bromlash, bug'lantirish, bo'ktirish, degidratatsiya, dekarboksillash, depolimerizatsiya, desorbsiya, desublimatsiya, diazotlash, yenollash, izomerizatsiya, karboksillash, koagulyatsiya, kuydirish, qizdirish, qorishtirgichlar, qumoqlash, metoksillash, oksimirlash, standartlashtirish, tiklash, forsgenlash) apparatchisi
33.	Alkilirlash (gazogeneratsiya, degidirlash, ishqorlash, karbonizatsiya, namlash, oksidlash, parchalash, piroliz, pishirish, polimerizatsiya, sulfirlash) apparatchisi
34.	Ammonoliz (aralashtirgich, gidroxlorlash, konversiya, ksantogenlash, eritish) apparatchisi
35.	Asbopo'lat listlarni to'yintirish va quritish apparatchisi

36.	Asetalirlash apparatchisi
37.	Asetofenolni (karbinol, qo'shimcha mahsulotlarni, oltingugurt, ftorli bor) ajratib olish apparatchisi
38.	Adsorbsiya apparatchisi
39.	Aralashtirish apparatchisi
40.	Vanadiy katalizatori bo'linmalari uchun aralashmalar va eritmalar tayyorlash apparatchisi
41.	Asetalirlash apparatchisi
42.	Filtrlash apparatchisi
43.	Ekstragirlash apparatchisi
44.	Distilyatsiya apparatchisi
45.	Chiqindilarni utilizatsiya qilish apparatchisi
46.	Gaz generatsiyasi apparatchisi
47.	Gaz haydash apparatchisi
48.	Bug'lash va qumoqlash apparatchisi
49.	Bug'lash qurilmasi operatori
50.	Bug'latish apparatchisi
51.	Vakuum-qabulqilgichlar apparatchisi
52.	Vakuumlash (nitrozlash, saturatsiya, sovutish, cho'zish, elash) apparatchisi
53.	Gaz ajratish apparatchisi
54.	Gazni quritish apparatchisi
55.	Gazni tozalash apparatchisi
56.	Gidratatsiya apparatchisi
57.	Gidratatsiya apparatchisi (kimyo sanoati)
58.	Dori mahsulotlarini tayyorlash dastgohi apparatchisi
59.	Yigiruv eritmaları tayyorlash apparatchisi
60.	Ion almashinuv apparatchisi
61.	Ion almashinuv operatori
62.	Issiqlik tashuvchilarni qizdirish apparatchisi
63.	Ishqorli metallarni tozalash apparatchisi
64.	Katalizator tayyorlash apparatchisi
65.	Kimyo sanoati chiqindilarini qayta ishlash apparatchisi
66.	Kimyo sanoatida bo'yoqchi
67.	Kimyo sanoatida jo'vachi
68.	Kimyo sanoatida masofadan turib boshqarish pulti operatori
69.	Kimyoviy ishlab chiqarish apparatchisi
70.	Kimyoviy reaktivlar ishlab chiqarish apparatchisi
71.	Kimyoviy tahlil laboranti
72.	Kimyoviy tolalarni formalash apparatchisi
73.	Kimyoviy tolalarni eshish va o'rash operatori
74.	Kislotalarni konsentratsiyalash apparatchisi

75.	Quritish apparatchisi
76.	Gidroliz apparatchisi
77.	Quticha moylash (quticha to'ldirish, to'ldirish) dastgohlari operatori
78.	Namlik tasniflash bo'yicha apparatchi
79.	Ohak sutini tayyorlash apparatchisi
80.	Ohakni so'ndirish apparatchisi
81.	Ohakni so'ndiruvchi
82.	Sintetik yelimlovchi smola ishlab chiqarish bo'yicha apparatchi
83.	Sovun tayyorlash apparatchisi
84.	Suvni tuzsizlantirish apparatchisi
85.	Sulfat ammoniyni olish apparatchisi
86.	Suyuqlikni tozalash apparatchisi
87.	Tajribaviy ishlab chiqarish qurilmasi apparatchisi
88.	To'yintirish agregatlari apparatchisi
89.	To'qimachilik sanoati kalandrchisi (g'altaklovchisi)
90.	Uglekislota olish apparatchisi
91.	Xom aralashmalar tayyorlash apparatchisi
92.	Xomashyoni tayyorlash va yarim tayyor mahsulotlar va mahsulotlarni chiqarish bo'yicha ma'mur
93.	Havosizlantirish va filtrlash apparatchisi
94.	Sentrifugalash apparatchisi
95.	Yarim o'tkazgichli materiallar ishlab chiqarish va kimyoviy tozalash bo'yicha apparatchi
96.	Tiklash apparatchisi
97.	Qozonxona operatori
98.	Havoni ajratish apparatchisi
99.	Eritish apparatchisi
100.	Xlorlash apparatchisi
101.	Suyuq ammiak ombori apparatchisi
102.	Osmos qurilmasi operatori
103.	Kalsinator mashinisti
104.	Quyiltirgichlar apparatchisi
105.	Oqova suvlarni tozalash apparatchisi
106.	Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi
107.	Bug'lash (aralashtirish, dozalash, kristallash, neytrallashtirish, regeneratsiya, rekuperatsiya, sterilizatsiyalash, tindirish, eritish) apparatchisi
108.	Ishqorda parchalash apparatchisi
109.	Katalizator to'rlarini o'rnatuvchi
110.	Kimyoviy reagentlarni tayyorlash apparatchisi
111.	Kimyoviy eritmalar tayyorlash apparatchisi
112.	Kompleks birikmalar olish apparatchisi

113.	Qattiq mahsulot olishga mo'ljallangan bug'lash apparatlari apparatchisi
114.	Qizdirish apparatchisi
115.	Quyish va kesish apparatchisi
116.	Polimerizatorchi
117.	Smolani matirovkalash apparatchisi
118.	Tindirish apparatchisi
119.	To'yintirish apparatchisi
120.	To'qimachilik sanoatida mersezizatsiya apparatchisi
121.	Fiksatsiya (filtrlash) apparatchisi
122.	Yuvish apparatchisi
123.	Puflash yarimavtomati operatori
124.	Namlash apparatchisi
125.	Kimyoviy ishlab chiqarishda maydalovchi

Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda mehnat bozorida qator an'anaviy kasblar o'z dolzarbligini yo'qotmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi va sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning rivoji natijasida quyidagi kasblar yo'qolib borayotgan (yoki yaqin yillarda sezilarli darajada qisqarishi kutilayotgan) kasblar sirasiga kiradi:

1. Elektroliz apparatchisi
2. Qum purkovchi
3. Xlorlash apparatchisi
4. Tindirish apparatchisi
5. Konversiya apparatchisi

Yaqin istiqbolda paydo bo'lishi kutilayotgan yoki shakllanayotgan yangi kasblar:

1. Xomashyoni tozalash apparatchisi
2. Deminerallangan suv ishlab chiqarish apparatchisi
3. Sintezlash va neytrallash apparatchi
4. Homashyo va tayyor mahsulot apparatchisi
5. Maxsus suv tozalash operatori (xom suvni tozalash, suvni mineralsizlantirish, kondensatni qayta ishlash)
6. Aylanma suv apparatchi
7. Ammiakni saqlash, gazni bug'latish uskunasi, mash'ala qurilmasi apparatchisi
8. Ozuqa suv tizimlari, o'rta bosim qozonxonasi va bug' ishlab chiqarish apparatchisi
9. Texnologik kondensatga ishlov berish apparatchisi
10. Ammiakni sintez qilish va sovitish apparatchisi
11. Yuqori bosimli qozon suvi va texnologik kondensatni tozalash apparatchisi
12. Havoni ajratish qurilmasi apparatchisi
13. Hududiy menejer;

14. Quyosh panellariga xizmat ko'rsatuvchi chilangarlari;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga kiritilmagan kasblar ro'yxati:

1.	Kimyogar texnolog
2.	Adsorbsiya apparatchisi
3.	Aralashtirish apparatchisi
4.	Vanadiy katalizatori bo'linmalari uchun aralashmalar va eritmalar Tayyorlash apparatchisi
5.	Asetalirlash apparatchisi
6.	Filtrlash apparatchisi
7.	Ekstragirlash apparatchisi
8.	Distilyatsiya apparatchisi
9.	Chiqindilarni utilizatsiya qilish apparatchisi
